

O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti
Xotijiy til va adabiyot 3-kafedrası
2-bosqich 2403-guruh tabalasi **Xolbutayeva Shahnoza Jumanazar qizi**
E-mail: xolbutayevashahnoza776@gmail.com
Tel: +998-94-776-19-02

VATANNI SOTGANLAR

Nonini yeb, suvini ichib qochganlar,
Dushmaniga siru dardin ochganlar,
Ona yurtga qilib bugun hiyonat
Sizmi o‘sha vatanini sotganlar?

Bayrog‘ini yerga tashlab kulganlar,
Erkligini pulga tenglab ko‘rganlar,
O‘z g‘ururini bir chaqalik qilganlar,
Sizmi o‘sha vatanini sotganlar?

Qon to‘kilgan tuproqqa tosh otganlar,
Do‘st o‘rniga yov quchog‘in topganlar,
Ajdodlarning qadrini sotib bir pulga
Qonga cho‘mib, quyosh kabi botganlar.

Erkligini o‘zga elga berganlar,
Yot zulmini rag‘bat deya bilganlar,
Vatanini yovga ochib qo‘yganlar,
Sizmi o‘sha vatanini sotganlar?

Nur o‘rniga soyalarda turganlar,
Zulmat ichra nur axtarib yurganlar,
Qaro kunni el boshiga solganlar,
Sizmi o‘sha vatanini sotganlar?